

PEYZAJ YARATISH SHAKLIDA O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTITISH

Yusupov Azat

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada peyzaj tasvirini yaratish shaklida o'рта maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda real tasvir va muhit vositalaridan foydalanish yoki foto sur'at, tayyor lavhalarinkuzatib ko'chirma asosida chizish, ma'lum o'zgartirishlar asnosida ijodiy ishlar yaratish borasidagi fikrlar izohlangan. Shuningdek, maqolada rangli tasvirlar ustida ishlash, rangsiz tasvirlar ustida ishlash, aralash tasvirlar ustida ishlash kabilar ham keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Rangli tasvir, rangsiz tasvir, aralash tasvir, real muhit, fotolavha, peyzaj tasviri.*

Tasviriy san'atning turli sohalar bilan o'zaro mutanosibligini oshirishda yuzaga keladigan ijtimoiy omillar ham muhim sanalib, rang tasvir grafikasida ham ahamiyatlidir. Shuning uchun ham o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish yuzasidan ularning aqliy salohiyatini inobatga olish ham ahamiyatlidir. Bunda turli ijtimoiy vositalar bilan ishlashish doirasida o'quvchilarning ong ostida turli ekspirementlarni sinab ko'rish amaliyoti qo'llaniladi. Haqiqatdan ham, o'quvchilarning rang tanlash, ranglarni ranglardan ajratish doirasida amaliy tajribalarning natijasi ahamiyatlidir. O'qituvchilar tomonidan aksar hollarda o'quvchi yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish chora tadbirlari yuzasidan quyidagi tajribalarning natijaviyligi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular quyidagicha:

1. Rangli tasvirlar ustida ishlash;
2. Rangsiz tasvirlar ustida ishlash;
3. Aralash tasvirlar ustida ishlash.

Yuqorida nomlari keltirilgan chora tadbirlarning amaliyotini ta'minlash peyzaj yaratish shaklida o'рта maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida ahamiyatlilik darjasi yuqori sanalib, peyzaj tasviri uchun muqobil ranglarning to'g'ri va sifatli ravishda tanlanishini ta'minlab beradi.

"Peyzaj tasviri qahramonlar ruhiyatini ochish bilan birga makon va zamoni ham belgilab beradi. Demak, tabiat tasviri berilgan joy makon bo'lsa, o'sha tabiat tasviridan kelib chiqib biz zamoni belgilab olamiz. Masalan kuz, qish, bahor, yoz, tun, kunduz vahokozo. Bu haqda adabiyotshunos I.Sultonov quyidagi fikrlarni qayd etadi: "Tabiat tasviri sujetning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, asarning g'oyaviy-estetik quvvatini oshiradi".[1] Rangli tasvirlar ustida ishlash o'quvchilarning ranglarning bir-biridan to'g'ri ajratilishi, yorqinlik va bo'yoqdorlik darajasini oshirishda yordam beradi. Ushbu holat peyzaj tasvirlarining rang-baranglikka to'la ekanligi nuqtayi nazaridan tasviriy san'at olami vakillari orasida muhim omil sanaladi. Shuning uchun ham, peyzaj yaratish shaklida o'рта maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda ranglar grafikasi bilan ishlashda

bahor, yoz va kuz kabi fasllar, mozaika tasvirlari muhimdir, chunki, peyzaj tasvirlari serjilo hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda, peyzaj tasvirlarining yaratilish shaklida o'rta maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda ikki usul mavjud bo'lib, o'quvchilar ushbu usullar yordamida o'z bilimlarini oshirishadilar. Ular:

1. Real tasvirlar bilan ishlashish;
2. Foto sur'atlar bila ishlashish.

Bunda asosan o'quvchilarning real tarzda ko'rgan voqelik, tasvirlarini chizishga qulay muhit va vaziyatlarni yaratishda - bog'lar, tog'larga, hayvonot bog'lariga, so'lim maskalarga tashrflarni ta'minlash lozim. Ikkinchi usul sanaladigan foto sur'atlar bilan ishlashish sohasida turli xildagi tasvirlar, foto lavhalar bilan ishlashish ham yaxshi samaralarni beradi. Bu kabi holatlar asosan geografik jihatdan noqulay, uzoq masofadagi hududlar tasvirini chizishda katta yordam berishi bilan xarakterlidir.

"Tabiat manzaralari ko'rinishi kitobxonlarning qahramonlar harakteri, holatini his qilishga imkon berishi jihatidan ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Qahramonlar yashaydigan joy ham ularning hayoti haqida aniq tasavvurlar uyg'ota oladi. Peyzaj yaratish yozuvchidan mahorat talab qilganidek, uning tarjimasi ham tarjimondan alohida yondashishni talab qiladi".[2] Tabiat manzaralari badiiy asarlarda ham o'z ifodasini topadi.

O'quvchi yoshlarni rangsiz peyzaj tasvirlari bilan ishlashishga o'rgatish ularda aqliy salohiyatdan foydalanib, rangsiz sur'atning rangli tarzda tasavvur etilishi yoki rangli tarzda chizilishi mo'yqalam sohibidan karta mashaqqat talab etadi. Aralash tasvirlar ustida ishlashish esa o'qituvchilarning o'quvchilarni yo'naltirishdagi predmet sanaluvchi vositalardan sanaladi. Umumiy qilib aytganda har qanday yo'nalish ham o'quvchilarning ma'lum taoifalarini qamrab olib, ularning peyzaj tasvirlarini hayolij tarzda yaratishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xasanov Axmad Isa o'g'li. "Ruhiyat tasvirida peyzajning o'rni" maqola. Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi - 2021
2. Shodmonova Dilfuza. "Yashnar Kamol asarlarida peyzaj tasviri va uning tarjimalarda aks ettirilishi" maqola. Tarjimashunoslar forumi – 2022